



2021- yil yanvar-oktyabr oylarida Toshkent viloyatida qurilish ishlari

Joriy yilning yanvar-oktyabr oylarida Toshkent viloyatida jami **6996,1** mlrd. soʻmlik qurilish ishlari bajarilib, oʻsish surʻati 2020- yilning mos davriga nisbatan **114,0 %**ni tashkil etdi.




2021- yil yanvar-oktyabr oylarida qurilish ishlari hajmining tarkibi, ulushi %da



Qurilish ishlari hajmi yirik qurilish tashkilotlari, kichik korxonalar va mikrofirmalar hamda norasmiy sektorlarda amalga oshirilgan ishlar tarkibi boʻyicha shakllanadi.


Amalga oshirilgan qurilish ishlari mulkchilik shakli, davlat va nodavlat boʻlgan korxonalar va tashkilotlar tarkibi boʻyicha boʻlinadi.



Maʼlumot uchun: qurilish ishlari hajmi bu – oʻz kuchi bilan bajarilgan qurilish ishlari, yangi qurilish, kapital va joriy taʼmirlash hamda boshqa pudrat qurilish ishlari natijasidir.



Qurilish ishlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni, birlikda



2021- yil 1- noyabr holatiga ko'ra qurilish sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni 3,9 mingtani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 470 taga oshdi.

Jami qurilish sohasidagi korxonalar va tashkilotlar soni ko'payishining asosiy omili, bu bino va inshootlar qurishda o'tgan yilga nisbatan **109,6 %**ga (jami qurilishdagi ulushi **52,6 %**), fuqarolik obyektlarini qurish **136,8 %**ga (jami qurilishdagi ulushi **7,8 %**), ixtisoslashtirilgan qurilish ishlarining **115,0 %**ga (jami qurilishdagi ulushi **39,6 %**) o'sishidir.




Toshkent viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan qurilish korxonalari soni (birlikda)

	holatiga ko'ra:		O'tgan yilning mos davriga nisbatan, %da
	2020- yil 1- noyabr	2021- yil 1- noyabr	
Toshkent viloyati	3946	3506	113,6
<i>shaharlar:</i>			
Nurafshon	199	163	122,1
Olmaliq	228	209	109,1
Angren	275	275	100,0
Bekobod	184	170	108,2
Ohangaron	126	111	113,5
Chirchiq	313	293	106,8
Yangiyo'l	90	83	108,4
<i>tumanlar:</i>			
Oqqo'rg'on	98	93	105,4
Ohangaron	89	74	120,3
Bekobod	116	100	116,0
Bo'stonliq	145	129	112,4
Bo'ka	124	107	115,9
Quyi Chirchiq	98	89	110,1
Zangiota	274	239	114,6
Yuqori Chirchiq	225	204	110,3
Qibray	416	340	122,4
Parkent	122	101	120,8
Piskent	81	79	102,5
O'rta Chirchiq	228	221	103,2
Chinoz	132	110	120,0
Yangiyo'l	194	167	116,2
Toshkent	189	149	126,8



Toshkent viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan qurilish korxonalari soni 2021- yil 1- noyabr holatiga ko'ra (ulushi %da)




Ma'lumot uchun: Viloyatda soni bo'yicha eng ko'p ulushga ega bo'lgan qurilish korxonalari Qibray tumanida (10,5 %), Chirchiq (7,9 %) va Angren shaharlarida (7,0 %) qayd etildi.

Joriy yilning yanvar-oktyabr oylarida, jami qurilish ishlari hajmi tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi **1499,2** mlrd. soʻmni tashkil etdi. Qurilish ishlari 2020- yilning yanvar-oktyabr oylariga nisbatan **112,7 %** oʻsish koʻrsatkichiga erishildi. Jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi 2020- yilning mos davridagi koʻrsatkich darajasidan **0,1 %** punktga kamaydi, **21,4 %**ni tashkil etdi.




Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi, %da



Maʼlumot uchun: yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining jami qurilish ishlari hajmidagi eng koʻp ulushi Olmaliq shahri (jami qurilish ishlari hajmining **80,9 %**i yoki 2020- yilning mos davriga nisbatan **734,9 %**), Qibray (jami qurilish ishlari hajmining **20,1 %**i yoki oʻtgan yilning mos davriga nisbatan **98,7 %**) va Yuqori Chirchiq (jami qurilish ishlari hajmining **16,2 %**i yoki oʻtgan yilning mos davriga nisbatan **89,4 %**) tumanlariga toʻgʻri keldi.



Qurilish ishlari umumiy hajmida kichik korxonalar va mikrofirmalarning ulushi, %da




Kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi 2021- yil yanvar-oktyabr oylarida qurilish ishlarini bajargan boshqa tashkilotlarga nisbatan oshganligi kuzatildi. Ular hissasiga jami qurilish ishlari hajmining **53,3 %** to'g'ri kelib, 2020- yilning yanvar-oktyabr oyi ko'rsatkichiga nisbatan **4,3 %** punktga kamaydi. Shuningdek, ular hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari hajmi 2020- yilning mos davriga nisbatan **104,4 %**ni tashkil etgan holda **3725,6** mlrd. so'm miqdorida qayd etildi.

Norasmiy sektor hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari ulushi o'tgan yilning mos davriga nisbatan **25,3 %**ni tashkil etdi yoki **1503,0** mlrd. so'm miqdorida qayd etildi. 2020- yilning yanvar-oktyabr oylariga nisbatan **141,8 %**ni tashkil etdi.



Qurilish ishlari umumiy hajmida norasmiy sektorning ulushi



Davlat mulkchiligidagi tashkilotlar tomonidan jami **1007,4** mlrd. soʻm qurilish ishlari bajarildi yoki 2020- yilning yanvar-oktyabr oyiga nisbatan **10,9** marta oshdi. Nodavlat mulkchilikdagi tashkilotlar tomonidan esa **5988,7** mlrd. soʻm qurilish ishlari bajarilib, oʻsish surʼati **99,2** %ni tashkil etdi. Ularning viloyatdagi tutgan ulushi mos ravishda **14,4** % va **85,6** %ni tashkil etdi.



Mulkchilik shakli davlat va nodavlat boʻlgan tashkilotlar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari, %da



Davlat mulki



Nodavlat mulk



Hududlar kesimida qurilish ishlari, 2021- yil yanvar-oktyabr oylarida

	Qurilish ishlari hajmi (mlrd. so'm)	O'sish sur'ati, %da	Jami qurilish pudrat ishlari hajmida hududlarning ulushi, %da
Toshkent viloyati	6996,1	114,0	100,0
<i>shaharlar:</i>			
Nurafshon	322,0	100,4	4,6
Olmalik	1008,3	297,0	14,4
Angren	252,2	110,2	3,6
Bekobod	178,5	100,5	2,6
Ohangaron	68,3	102,0	1,0
Chirchiq	347,4	100,2	5,0
Yangiyo'l	156,8	101,2	2,2
<i>tumanlar:</i>			
Oqqo'rg'on	126,7	100,4	1,8
Ohangaron	247,5	100,6	3,5
Bekobod	94,3	119,5	1,3
Bo'stonliq	248,8	89,5	3,6
Bo'ka	179,1	100,5	2,6
Quyichirchiq	279,3	102,6	4,0
Zangiota	604,1	102,2	8,6
Yuqori Chirchiq	470,4	105,8	6,7
Qibray	882,1	118,9	12,6
Parkent	237,0	101,3	3,4
Piskent	251,9	100,1	3,6
O'rta Chirchiq	327,1	90,3	4,7
Chinoz	155,7	100,4	2,2
Yangiyo'l	222,9	109,5	3,2
Toshkent	335,3	100,3	4,8



Hududlar kesimida qurilish ishlari, 2021- yil yanvar-oktyabr oylarida

Eng yuqori hajm

(mlrd. so'm)

1 Olmaliq sh.
1008,3

2

Qibray t.
882,1

3 Zangiota t.
604,1



Kichik hajm

(mlrd. so'm)

1 Ohangaron sh.
68,3

2

Bekobod t.
94,3

3 Chinoz t.
155,7



Toshkent viloyati statistika boshqarmasi
Investitsiyalar va qurilish statistikasi bo'limi
Aloqa telefoni: (71) 202-86-70